AGROINNOVATSIYA jurnali
Volume 03, Issue 01, 2025 ISSN (E): 3030-3249
06.00.00 – Qishloq xo‘jaligi

УДК:631.528.+633.39



Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Xamroyeva Gulnoz Usmonovna Urug‘chilik va urug‘shunoslik laboratoriyasi mudiri., q.x.f.f.d. (PhD)
E-mail: uzkarakul30@mail.ru

CHO‘L OZUQABOP O‘SIMLIK NAVLARI URUG‘LARINING SIFAT KO‘RSATKICHLARI VA URUG‘ HOSILDORLIGI
КАЧЕСТВЕННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ СОРТА ПУСТЫННЫХ КОРМОВЫХ РАСТЕНИЙ И УРОЖАЙНОСТЬ СЕМЯН

QUALITY INDICATORS OF DESERT FODDER PLANT VARIETY AND SEED YIELD

Xamroyeva Gulnoz Usmonovna, Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining Urug‘chilik va urug‘shunoslik laboratoriyasi mudiri,q.x.f.f.d. (PhD), uzkarakul30@mail.ru
Samarqand sh.

Хамроева ГулнозУсмоновна, Научно-исследовательского института каракулеводства и экологии пустынь, заведующий лабораторией семеноводства и семеноведение д.х.ф.н. (PhD), uzkarakul30@mail.ru
г. Самарканд.

Xamroeva Gulnoz Usmonovna. q.x.f.f.d. (PhD), Head of the laboratory of the seed industry and the Seedy, Research Institute of Karakul and Desert Ecology, uzkarakul30@mail.ru Samakand s.

Annotasiya. *Maqolada O‘zbekiston cho‘l yaylovlari hosildorligini oshirishda istiqbolli bo‘lgan ozuqabop o‘simlik tur va navlarining urug‘ hosildorligi va urug‘larining sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan va tadqiqotlarning kelgusi vazifalari belgilangan.*

Аннотация. *В статье представлены результаты проведенных исследований по изучению показателей урожайности и качества семян питательных видов и сортов растений, перспективных в повышении урожайности пустынных пастбищ Узбекистана, определены дальнейшие задачи исследований.*

Abstract. *The article presents the results of research conducted to study the yield and quality of seeds of nutritious plant species and varieties that are promising in increasing the yield of desert pastures in Uzbekistan, and defines further research objectives.*

Kalit so‘zlar: *cho‘l, yaylov, fitomeliorasiya, qurg‘oqchilik, gullash, urug‘, hosildorlik, unuvchanlik, skarfikasiya, stratifikasiya.*

Ключевые слова: *пустыня, пастбища, фитомелиорация, засуха, цветение, семена, урожайность, плодородие, скарфикация, стратификация.*

Key words: *desert, pastures, phytomelioration, drought, flowering, seeds, yield, fertility, scarification, stratification.*

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ. INTRODUCTION. Cho‘l va yarim cho‘l mintaqalari O‘zbekiston respublikasi umumiy er maydonining deyarli yarmini egallaydi va yaylov chorvachiligida asosiy ozuqa manbai sifatida foydalanilib kelinmoqda. Uzoq yillar davomida ulardan uzluksiz foydalanish, buta va yarim buta o‘simlik turlarini xo‘jalik ehtiyojlari uchun chopib olish va boshqa sabablar tufayli hozirgi kunga kelib yaylovlar o‘simlik qoplamida biologik xilma-xillikning kamayishi, hosildorlik va yaylov ozuqasi sifatining sezilarli pasayishi kuzatilmoqda. Bunday holat yaylov chorvachiligini barqaror rivojlantirish imkonini bermay, sohaning iqtisodiy ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda. Shu bois, yaylovlarni fitomeliorasiyalash orqali hosildorligini oshirish O‘zbekiston respublikasi uchun dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda yaylovlarni fitomeliorasiyalashda istiqbolli bo‘lgan bir talay ozuqabop o‘simlik turlari aniqlangan va ularning mahalliy navlari yaratilgan. Inqirozga uchragan yaylov maydonlari millionlab gektarlarni tashkil qiladi va istiqbolli navlarning katta maydonlardagi urug‘chilik plantasiyalarini barpo qilish vazifasini yuklatadi. Hozirgi kunda cho‘l ozuqabop o‘simlik tur va navlari urug‘chiligi va urug‘shunosligi yo‘nalishlaridagi tadqiqot ishlarining natijalari muammoni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohadagi ilmiy ma'lumotlar etarli darajada emas. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan izlanishlarning dastlabki ma'lumotlari tahlil qilinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ. LITERATURE ANALYSIS. lmiy adabiyotlarda cho‘l ozuqabop o‘simliklarining urug‘shunosligi va urug‘chiligi bo‘yicha ma'lumotlar juda kam. Faqat ularning gullashi va changlanishi bo‘yia ma'lumotlar keltirilgan. Masalan qora saksovulning gul tuzilishi, gullash ritmi va changlanish xususiyatlari o‘rganilgan va uning shamol yordamida chetdan changlanishi aniqlangan (Demyanova, 1975). Paleskiy cherkezining ham gullash ekologiyasi va biologiyasi xususiyatlari o‘rganilgan va uning shuningdek, Rixter cherkezining ham o‘z-o‘zidan changlanishi aniqlangan (Xamidov, Shegay, Shamsutdinov, 1974). Teresken o‘simligining ham gullash, changlanish xususiyatlari o‘rganish natijasida (Demyanova, Zutenina, 1978) uning chetdan shamol yordamida va o‘z-o‘zidan ham changlanish xususiyatiga ega ekanligi aniqlangan. Tereskenda bir tupning o‘zida (ya'ni 1 ta generativ novdada 20-60 donagacha urg‘ochi, 500-700 donagacha erkak gullar rivojlanishi aniqlangan. Yana unda shu xususiyat aniqlanganki, qurg‘oqchil yillarda ko‘plab erkak gullar shakllansa, yog‘ingarchilik mo‘l bo‘lgan yillarda urg‘ochi gullar ko‘plab hosil bo‘lishi qayd etilgan. Izenning gullash biologiyasi, ekologiyasi va changlanish xususiyatlari o‘rganilib, uning asosan shamol yordamida chetdan changlanishi, toshloq ekologik tipida esa o‘z-o‘zidan changlanish uchratish (geytenogamiya) mumkinligi aniqlangan (Xamidov, 1977). Ushbu o‘simlikning gullash biologiyasi va changlanishi xususiyatini o‘rganish bo‘yicha keyinchalik olib borilgan tadqiqotlar natijasida geytenogamiya xususiyati har uchala ekologik tiplariga (soz tuproq, toshloq va qumloq ekologik tiplariga ham) xos ekanligi aniqlangan (Alimaeva, 1979; Rabbimov, 1989).

TADQIQOT MANBAI VA USLUBLARI. МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ. METHODS. Tadqiqotlarning manbai bo‘lib hozirgi kunda yaylovlarni fitomeliorasiyalashda istiqbolli bo‘lgan izen, teresken, cho‘g‘on, quyrovuq, saksovul, astragal va xuroson esparseti kabi o‘simlik turlari va

navlari urug‘lari xizmat qildi. Tadqiqotlarni olib borishda o‘simlikshunoslik, urug‘chilik va urug‘shunoslikda umum qabul qilingan uslublardan foydalanildi.



Rasm-1. Izenning urug‘chilik maydoni

TADQIQOT NATIJALARI VA UNING TAHLILI. АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИССЛЕДОВАНИЯ. RESULTS. Urug‘ hosildorligi. Cho‘l mintaqasidagi mavjud ekstremal sharoit ozuqabop o‘simliklarning urug‘chiligi va urug‘shunosligining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. Atmosfera va substratning quruqligi, havo nisbiy namligining pastligi, yuqori quyosh insolyasiyasi va issiq iqlim o‘simliklarning gullashi, changlanishi va urug‘ maxsuldorlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta'sirini o‘tkazadi va bu urug‘ hosili, uning ekinboplik xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar natijalari shundan dalolat beradiki, cho‘l ozuqabop o‘simlik turlari va navlarining urug‘ hosildorligi nisbatan past va o‘simlik turi va naviga qarab gektaridan 1,13-3,9 sentnerni tashkil qiladi (1-jadval).

1-jadval

Cho‘l ozuqabop o‘simlik tur va navlari urug‘ hosildorligi, s/ga

Qarnab, Nurota tajriba dalalari

Tur va navlar	Tup soni, ming/ga	Urug‘ hosili, s/ga			O‘rtacha 3 yilda, s/ga
		2020 yil	2021 yil	2022 yil	
Izen “Saxro”	12,5	1,2 ± 0,3	1,7 ± 0,4	1,8 ± 0,2	1,56
Izen “Otavniy”	13,2	2,0 ± 0,3	2,4 ± 0,2	2,3 ± 0,2	2,23
Cho‘g‘on “Jayxun”	11,6	2,6 ± 0,4	3,6 ± 0,4	0,4±3,9	3,36
Olabuta “Yagona”	10,8	3,4 ± 0,5	4,2 ± 0,4	4,1 ±0,3	3,9
Astragal “Oqtog‘”	13,5	0,8 ± 0,2	1,2 ± 0,3	1,4 ±0,4	1,13
Xuroson esparseti	24,6	1,3 ±0,3	1,5 ± 0,2	1,7 ± 0,4	1,6
Boyalich	12,4	1,6 ± 0,3	1,8 ± 0,3	1,9 ± 0,4	1,76



Rasm-2. Cho‘g‘onnning urug‘chilik maydoni

Urug‘ hosildorligi yilning iqlim xususiyatlariga qarab ham ma'lum darajada o‘zgarib turadi. Masalan, nisbatan qurg‘oqchil kelgan 2020 yilda barcha tur va navlarning urug‘ hosildorligi yog‘ingarchilik miqdori nisbatan ko‘proq bo‘lgan 2021 va 2022 yillarga nisbatan sezilarli past bo‘lganligi 1-jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdi.

Urug‘larning tozaligi. Urug‘larning tozaligi deganimizda biz urug‘ massasi tarkibidagi normal rivojlangan urug‘lar salmog‘ini nazarda tutayapmiz. Ushbu ko‘rsatkich o‘simlik turi va navining biologik xususiyatlari bilan bir qatorda, urug‘larni yig‘ib-terib olish texnologiyasiga, tozalash ishlarining qay darajada amalga oshirilishiga ham bog‘liq. Hozirgi kunda cho‘l ozuqabop o‘simlik urug‘larini yig‘ib-terib olish ishlari qo‘l kuchi yordamida amalga oshiriladi, maxsus mexanizmlar mavjud emas. Qo‘l kuchi yordamida terib olingan urug‘larning tozaligi 2-jadval ma'lumotlarida keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turganidek, urug‘larning tozaligi ham nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, o‘simlik turi va naviga qarab 27,6 % dan 51,3 % gacha bo‘lishi aniqlandi. Urug‘ massasi tarkibining 48,7-72,4 foizini urug‘ hosil qilmagan g‘unchalar, barglar va boshqa qo‘shimchalar tashkil qiladi. Bu erda shuni qayd etib o‘tish joizki, cho‘l ozuqabop o‘simliklarining aksariyat turlarining gullash davri may- iyul oylarini qamrab oladi va qurg‘oqchil iqlim sharoitida hosil bo‘lgan gul g‘unchalarining barchasida bo‘liq urug‘lar hosil bo‘lmaydi. Masalan, izenning bir tupida hosil bo‘lgan 70600 dona gul g‘unchalaridan 17090 dona urug‘lar hosil bo‘lganligi aniqlangan ya'ni, urug‘ hosil bo‘lish ko‘rsatkichi atigi 25% ni tashkil qilgan. Bu juda past ko‘rsatkich bo‘lib, asosiy sabablardan biri noqulay iqlim sharoiti deb izohlash mumkin.

Urug‘larning unuvchanligi. Urug‘larning unuvchanligi ularning ekinboplik sifatlarini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Odatda urug‘larning sifatini aniqlashda ular har bir tur uchun turlicha bo‘lgan optimal sharoitlarda laboratoriya sharoitida undirilib, unuvchanligi aniqlanadi.

2-jadval

Cho‘l ozuqabop o‘simlik tur va navlari urug‘larining tozaligi, %
Qarnab, Nurota 2020-2022 yy.

Tur va navlar	Tozaligi, %			O‘rtacha 3 yilda, s/ga
	2020 yil	2021 yil	2022 yil	
Izen “Saxro”	26	28	29	27,6 ± 0,9
Izen “Otavniy”	30	33	36	33,0 ± 1,7
Cho‘g‘on “Jayxun”	48	52	54	51,3 ± 1,6
Olabuta “Yagona”	36	42	44	40,6 ± 2,4
Boyalich	41	46	53	46,6 ±3,6
Xuroson esparseti	52	49	51	50,6 ±0,9
Astragal “Oqtog”	38	42	44	41,3±1,9

Maxsus tajribalar olib borish natijasida aniqlanganki, aksariyat cho‘l ozuqabop o‘simlik turlari urug‘larini undirishning optimal harorati 10-200S o‘zgaruvchan haroratdir. Cho‘l ozuqabop o‘simlik turlari va navlari urug‘larining laboratoriya sharoitidagi unuvchanligini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, qora saksovul va teresken o‘simliklari urug‘larining unuvchanligi nisbatan yuqori, ya'ni 85-89% ni tashkil qilgan bo‘lsa, olabuta, cho‘g‘on, quyrovuq singari turlar urug‘larining unuvchanligi 56-66% atrofida, astragal va Xuroson esparseti urug‘larining unuvchanligi esa juda past ko‘rsatkichlarni- 4,2-36,5% ni tashkil qilishi aniqlandi (3-jadval). Astragal va Xuroson esparseti dukkaklilar (Fabaceae) oilasiga mansub turlar bo‘lib, ularning o‘ziga xos biologik xususiyatlaridan biri- urug‘larining qattiqlik xususiyatidir, ya'ni ushbu turlar urug‘ qobiqlarining suv o‘tkazmasligi tufayli uzoq muddatli tinim davriga ega bo‘lishlaridir. Qattiq urug‘larni tinim davridan chiqarish va unuvchanligini oshirishda turli usullardan (mexanik, kimyoviy skarifikasiyalash, stratifikasiyalash) foydalaniladi va cho‘l ozuqabop o‘simlik turlari ham bundan istesno emas, shu bois, ushbu yo‘nalishlarda maxsus tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3-jadval

Cho‘l ozuqabop o‘simliklari urug‘larining laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi, %
Samarqand, 2022 y. Undirish harorati 10-18^{0}S
(n=100)

№	O‘simlik turi, navi	Unuvchanligi, % **M±m**
1	Olabuta “Yagona”	56,0 ± 1,5
2	Qora saksovul “Nortuya”	89,2 ± 1,4
3	Quyrovuq “Pervenes Karnaba”	61,2 ± 1,2
4	Cho‘g‘on “Jayxun”	66,4 ± 1,7
	Teresken	85,2 ± 1,4
6	Xuroson esparseti	36,5± 1,9
7	Astragal “Oqtog‘”	4,2 ± 0,3

XULOSALAR. ЗАКЛЮЧЕНИЕ. CONCLUSION. O‘zbekiston cho‘l yaylovlari chorvachilik sohasining asosiy ozuqa manbalaridan biri hisoblanadi va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Yaylovlarning deyarli yarimi turli darajada inqirozga uchraganligi va hosildorligining sezilarli pasayganligi ularni fitomeliorasiyalash orqali hosildorligini oshirishni taqozo etadi. Bunda cho‘l ozuqabop o‘simliklari seleksiyasi va urug‘chiligi yo‘nalishlaridagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ahamiyati o‘ta muhim bo‘lib, mazkur maqolada keltirilgan ma'lumotlar urug‘chilik va urug‘shunoslik yo‘nalishlaridagi tadqiqot ishlarining kelgusidagi vazifalarini belgilash imkonini beradi, ya'ni cho‘l ozuqabop o‘simliklari turlari va navlari urug‘ hosildorligining va ekinboplik sifatlarining nisbatan pastligi, ba'zi turlar urug‘larining qattiqlik xususiyatlari urug‘ hosilini va sifatini oshirish imkonini beruvchi ilg‘or agrotexnik tadbirlarni, urug‘larning unuvchanligini oshirishning samarali usullarini ishlab chiqishning zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar: **Использованная литература: References**

1. Алимаева Л.Н. Биология цветения и опыления прутняка в пустынной зоне Алма-Атинской области// Улучшение и рациональное использование пустынных пастбищ Казахстана.-Алма-Ата: Кайнар, 1975, с.- 16-26.

2. Ашурметов О.А., Каршибаев Х.К. Семенное размножение бобовых растений в аридной зоне Узбекистана. Ташкент,2002.-204 с.

3. Гриценко В.В., Калошина З.М. Семеноведение полевых культур. М., Колос,1976.-254 с.

4. Демьянова Е.Н. Антэкология саксаульников каменистых пустынь Юго-Восточного Казахстана.-Экология, 1975, вып. 1, с.73-84.

5. Демьянова Е.И., Зутенина Н.А. К экологии цветения и опыления терескена серого (Ceratoides papposa Botsch.et Ikonnikov) В кн.: Экология опыления. Пермь, 1978, с. 51-56.

6. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.,Колос,1979.-416 с.

7. Ионесова А.С. Физиология семян дикорастущих растений пустыни. Ташкент, 1970.-151 с.

8. Раббимов А. Ўзбекистонда изен ўсимлиги (Kochia prostrata L.) ва ундан фойдаланиш. Самарқанд,”Zarafshon” нашриёти, 2014.- 111 б.

9. Хамидов А.А., Шегай Ю.В., Шамсутдинов З.Ш. Биология плодообразования и семенная продуктивность пустынных пастбищных растений.- В кн.: Семеноводство пустынных пастбищных растений. Ташкент, «Фан», 1974, с. 23-51.